

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.S.Sharipova

Bioetik bilim tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik zarurati..... 6

Sh.K.Xujamberdiyeva

Maktabgacha yoshdag'i bolalarni insoniy fazilatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'rni..... 11

M.B.Artikova, M.M.Mutallibjonov

Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalar tadqiqi 16

M.M.Kaxarova, N.E.Yusupova

Ingliz tili darslarida matn bilan ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ... 23

M.M.YakubbayevDevelopment of lingvocultural competence of students in the process of teaching
german language 29**J.A.Yuldashev**Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga aksiologik yondashuvni joriy etishning
metodik xususiyatlari..... 34**X.T.Nishonova**Methods of developing students' lexical competence through comics in English lessons in
elementary grades 38**Sh.M.Robilova**

O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik modeli..... 43

U.S.Do'sanovOliy o'quv yurti talabalariga jismoniy tarbiya tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarini
qo'llash metodikasi..... 47**X.X.Umarov**

Влияние высокоинтенсивной тренировочной нагрузки на организм юных гимнастов 51

D.K.KarimovМониторинг эффективности корреляционной связи спортивной специализации от
типов телосложения у юных акробатов 55**Z.G.Gapparov**

Исследование новых технологий синхронизации движения в синхронном плавании 61

M.N.NasritdinovaArtpedagogika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak pedagoglar badiiy-ijodiy kompetentligini
rivojlantirish..... 67**M.G.Zaylobidinova**Nodavlat ta'lif muassasalarida ta'lif oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning
pedagogik omillari, Xitoy tajribasi 72**D.K.Baydjanova**

Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni 78

I.A.RaxmonovBoshlang'ich sinf o'quvchilarida hayot faoliyati xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishni
pedagogik muammosi..... 82

IQTISODIYOT

M.K.Abadov

Possible consequences of the refusal to switch to a digital currency in Azerbaijan 85

FALSAFA

M.A.Mamatov

So'fiylik – gumanistik ta'limot 90

Sh.O.Ahrorova

Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'rni 98

D.Y.Qambarova

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichda ijtimoiy munosabat mezonlari 102



УО'К: 373.2:82-93

**МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARINI INSONIY FAZILATLARINI
SHAKLLANTIRISHDA BADIY ASARLARNING O'RNI**

**РОЛЬ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ
ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ КАЧЕСТВ ДОШКОЛЬНИКОВ**

**THE ROLE OF FICTION BOOKS IN SHAPING THE HUMAN QUALITIES OF
PRESCHOOLERS**

Xujamberdiyeva Shaxnoza Kupaysinovna 

Namangan davlat universiteti professori v.b., pedagogika fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Ushbu maqolada mактабгача yoshдagi bolalarни insoniy fazilatлarini shakllantirishda badiy asarlarning o'rni va ahamiyati, tarbiyalanuvchilarga qulay pedagogik sharoit yaratish orqali badiy faoliyatga qiziqish uyg'otish to'g'risidagi fikrlar berilgan.

Аннотация

В данной статье показаны роль и значение художественной литературы в формировании человеческих качеств детей дошкольного возраста и создании благоприятной педагогической среды для детей.

Abstract

This article shows the role and importance of fiction in the formation of human qualities of preschool children and the creation of a favorable educational environment for children.

Kalit so'zlar: Badiy adabiyot, bolalar adabiyoti, ma'naviy-axloqiy, badiy-estetik rivojlantirish, intellektual imkoniyatlar, kitob o'qishga qiziqish, idrok etish, nutqiy faoliya, nutqiy madaniyat, badiy materiallar, ta'lim muhit.

Ключевые слова: Художественная литература, детская литература, духовно-этическое, художественно-эстетическое развитие, интеллектуальные возможности, интерес к чтению, восприятия, речевой деятельности, культура речи, художественные материалы, образовательная среда.

Key words: Fiction, children's literature, spiritual-ethical, artistic-aesthetic development, intellectual capabilities, interest in reading, perception, speech activity, speech culture, art materials , educational environment.

KIRISH

Muhtaram Prezidentimizning "Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faoliyk oshadi, axloqiy-estetik va jismoniylar xislatalar shakllanadi. Shu bois ham, kelgusi yillarda maktabgacha ta'limga sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvoldidan qat'i nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'limga yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat", degan so'zlar mazkur sohaning davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilganligini anglatadi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, 2016-yildan boshlab, maktabgacha ta'limga tashkilotlari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'limga tashkilotlariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'limga sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi, maktabgacha ta'limga tashkilotlari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam desak xato bo'lmaydi.

O'tgan qisqa davr mobaynida maktabgacha ta'lif nafaqat qayta tiklanib, balki rivojlanib, takomillashib bormoqda. Bolalar qamrovi hozirda 80%ga, 2030-yilda esa 100 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Sohaga yangicha innovatsion pedagogik texnologiyalarning joriy qilinishi sababli maktabgacha ta'lif tizimi ham shaklan ham mazmunan, hatto xorijiy tillarni o'rganish borasida ham o'zgardi. Buning natijasi har bir oila farzandlari misolida yaqqol ko'rindi. Bu boradagi to'plangan tajribani, aniqrog'i pedagogik texnologiyalarni o'rganish, hali mavjud muammolarni yechimini topish zarur.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida[1] maktabgacha ta'lif sohasida ijobji natijalar borligini ta'kidlab, hali saqlanib qolayotgan muammolarni ilmiy yechimiga qaratilgan izlanishlar olib borish kerakligini uqtiradilar.

Jumladan, qarorda maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish hamda ta'lif-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish maqsadida pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi ta'lif va ilmiy-tadqiqot, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning muassasalari bilan samarali idoralararo hamkorlikni chuqurlashtirish masalalari ta'kidlab o'tilgan.

Yana shuni ham ta'kidlamoqchimanki, mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tomonidan maktabgacha ta'lif masalasiga doir izlanishlar olib borishgan. Biroq, maktabgacha ta'lif tashkilotlarda bolalarni badiiy ijod namunalari asosida tarbiyalashga doir ishlar amalga oshirilmagan.

Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sifatli ta'lif muammolarini global darajada samarali hal qilish, ularni jismoniy va ma'nnaviy barkamol etib tarbiyalash, badiiy-estetik tasavvurlarni ilk yoshdan shakkantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, bolalarni ilk yoshdan boshlab ma'nnaviy-axloqiy, badiiy-estetik rivojlantirish, kitob o'qishga qiziqishni uyg'otish, o'qish savodxonligini oshirishning samarali pedagogik modellarini ishlab chiqish muhim ustuvorlik kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2024-yilda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan keljak sammitining asosiy masalalaridan biri sifatida ilk yoshdan bolalarda hayotiy ko'nikmalarni shakkantirish barqaror rivojlanish kafolati ekanligiga alohida e'tibor qaralayotganligi ham maktabgacha ta'lif-tarbiya sohasiga doir yangi metodikalarni ishlab chiqish zaruriyatini taqozo etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida badiiy adabiyotdan foydalanishning axborot texnologiyalari bilan integratsiyasini ta'minlash, tarbiyanuvchilarda kitob o'qishga qiziqish uyg'otishning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish, bolalarning mustaqil va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda bolalar adabiyotining sara namunalarini tanlab olishning metodik tamoyillari va mezonlarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lif olish qamrovini oshirish, maktabgacha ta'lif tizimiga innovatsion pedagogik hamda axborot texnologiyalarini joriy etish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etishni tashkil qilish, raqamli ta'lif resurslari, uydan turib masofaviy ta'lif berish va ota-onalar bilimini oshirish texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish"[1] maktabgacha ta'lif tizimiga ilg'or pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ustuvor yo'nalishlarini o'zida aks ettiradi.

Badiiy adabiyotning o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga zavq bag'ishlab, ularning barcha eng yuqori qobiliyat va kuchlarini faollashtiradi, uni ijodkorlikka undaydi. Bu badiiy adabiyotning ijodkorlik vazifasidir. Biroq, ijodiy faoliyat insonning boshqa odamlar bilan muloqotini, boshqalar uchun nimadir yaratish istagini o'z ichiga oladi. Bu yerda evristik (ijodkorlik) funksiyasi kommunikativ funksiya bilan kesishadi, buning natijasida badiiy adabiyot kattalar va bolalar, bolalar jamoasi o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Badiiy adabiyotning ijtimoiy va tashkiliy funksiyalarni amalga oshirishda muloqot asosiy vositachi bo'lib xizmat qiladi. Muloqot bolalarning o'z tengqurlari, yaqinlari, oila va jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni yaqinlashtiradi. Aynan muloqot orqali shaxsni ijtimoiylashtirish

PEDAGOGIKA

funksiyasi amalga oshib, badiiy adabiyot shaxsni jamiyat bilan bog'lovchi o'ziga xos manba bo'lib hissa qo'shadi. Shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlashdagi maqsadli ravishda amalga oshirilgan harakatlar tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Badiiy adabiyotning ijtimoiylashtirish va tarbiyaviy funksiyasining samaradorligini ta'minlash natijasida o'zaro bog'liqlikdagi kognitiv qiymatga asoslangan ta'limi vazifasi amalga oshadi.

Badiiy adabiyot orqali bolaning dunyoqarashi, intellektual salohiyati, fikrlash ko'nikmalari rivojlantirib boriladi, lekin bu bola ularga munosabat bildira olishi, ularni badiiy idrok etishi sharti bilan sodir bo'ladi. Psixologlar, o'qituvchilar, tilshunoslarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan turli janrdagi adabiy asarlarni idrok etish muammosi murakkab va ko'p qirrali. Bunday holda, bola tasvirlangan voqealarda sodda ishtirot etishdan estetik idrok etishning murakkab shakllarigacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tadi. L.S.Vigotskiy[2], A.V.Zaporojets[3], A.A.Leontiyevlar[4] badiiy asar mazmuni va badiiy shaklini maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan tushunishning xarakterli xususiyatlarini ajratib ko'rsatganlar. Ushbu xususiyatlar o'zida bolalar tafakkuridagi aniqlik, ahamiyatsiz ko'rning hayotiy tajriba hamda tevarak-atrofdagi voqe-a-hodisalariga nisbatan bo'ladigan to'g'ridan-to'g'ri munosabatlar shaklini oladi. Ushbu mualliflarning tadqiqotlarida tarbiya jarayonining maqsadli tashkil etilgan ma'lum bir bosqichlarida tavsiya badiiy asarlar orqali bolalarning badiiy ijodiyotini bir necha ko'rinishlarini rivojlantirishga erishish mumkinligini o'z izlanishlarida atroficha yoritganlar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotni anglay bilish, tevarak-atrofdagi voqe-a-hodisalar bilan oddiy tanishish emas, balki ularni to'liq boshdan kechirilgan amaliy kuzatishlar bilan muvofiqlashtirishda badiiy adabiyot eng asosiy vositadir. Psixolog B.M.Teplov fikriga ko'ra, badiiy adabiyotni tushunish, mazmunini anglash uchun, birinchi navbatda, bolada hissiy tajribani shakllantirish zarurdir. Badiiy asar mazmunini idrok etish uchun uni dildan his eta olish kerak[5,144]. Asarni to'laqonli idrok etishda bolaning ijodiy faoliyatga yo'naltirishni o'rganish kerak bo'lgan mahoratdir. Tarbiyachi va kattalar esa bolalar tomonidan ushbu mahoratni o'zlashtirishga qaratilgan turli xil usullarni puxta ishlab chiqishlari zarurdir.

L.S.Vigotskiy, bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda nafaqat ertak, hikoya, she'r va boshqa badiiy asarlarning mazmunigagina e'tibor qaratish emas balki, ularni o'rganuvchilar ongiga yetkazishga yordam beruvchi ifodali vositalariga ham alohida urg'u berish lozimligini ta'kidlagan[6,31]. Maktabgacha yoshda bolalar ifodali vositalar orqali asar mazmunini, so'z va iboralarning majoziy ma'nosini tushuna oladilar, g'oyasini anglay oladilar va keyinchalik esa adabiy meros haqidagi bilimlarini rivojlantirishda maktabgacha yosh davrida qo'yilgan poydevorga asoslanadilar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Badiiy adabiyotdagagi ijobiy bosh qahramonlar bolalarda mehribonlik, hamdardlik xislatlarini shakllantirish uchun juda muhimdir. Bolalardagi badiiy adabiyotga bo'lgan kuchli va barqaror qiziqish paydo bo'lishi aytilgan va o'qilgan narsalarga e'tiborini rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash nuqtayi nazaridan ta'lim tizimining ehtiyojlari vaqt o'tishi bilan yetuklashdi. Shu yoshdagi o'qib berilgan adabiyotlar orqali tarbiyalanuvchilarning insoniy tuyg'ularning sinteziga va atrofda sodir bo'layotgan jarayonlarda ishtirot etish istagini faollahishiga yordam beradi. Asarlarning bosh qahramonlari bilan turli his-tuyg'ularni boshdan kechirgan bolalarda atrofdagi odamlarning kayfiyatiga e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, bolalarda mehr-oqibat va halollik, insof va fuqarolik mas'uliyati ham tarbiyalanib boradi.

Bolaning ichki dunyosi asarlarni o'zlashtirish jarayonida rivojlanadi. Badiiy til bolaga ona nutqining barcha tovushlarini qabul qilishga yordam beradi, atrofdagi dunyonи estetik idrok etish jarayonini tezlashtiradi va axloqiy g'oyalarni to'plash va mustahkamlashga yordam beradi. Badiiy adabiyotga kirish ko'p hollarda erta bosqichda folklor miniyaturlari – bolalar qofiyalari va qo'shiqlari bilan amalga oshiriladi. Shundan so'ng bolalarni xalq ertaklari bilan tanishtirib boriladi. Insonparvarlikning chuqur saviyasi, ijobiy axloqiy yo'nalish, jonli hazil, majoziy tilning boyligi – barcha asarlarning asosiy xususiyatlari sanaladi. Bolalarga yozuvchining ertak, hikoya va she'lari taqdim etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar turli xil ertak qahramonlari obrazlarini gavdalantiradilar.

Ertak va hikoyalar bolalarda to'g'ri nutqni rivojlantirishda beqiyos yordamchi hisoblaniladi. Shuningdek, ular qo'rkoqlik, dangasalik, injiqqlik va xudbinlikka qarshi kurashda yaxshi vositadir.

Ertaklar mazmunini talqin qilish bolalarning o'z hikoyalarini tuzish qobiliyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Obrazlar yosh kitobxonning tasavvur va fantaziya zaxirasini boyitadi. Yaxshi va sifatli adabiy asarlarning mazmun-mohiyatini singdirish natijasida bola yaxshilikni qadrlaydigan, yovuzlikka qarshi kurashishga tayyor, insonparvar shaxs bo'lib shakllanadi.

Hikoya va ertaklar orqali bolalarning ham estetik, ham axloqiy g'oyalardan oziqlanishlari foydali va maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi vositasida eshitilgan asarlar bolaga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Hikoyani eshitish orqali bolaning nutqiy madaniyati oshib boradi. Badiiy asarlarning barcha tarbiyaviy usullaridan mohirona foydalanish zarur.

Bolalar ona tilidagi tovushlardan tashqari, so'zlarning ruhiy kuchini ham jamlaydilar. Aynan "so'z" kabi oddiy tushuncha yordamida bola uni o'rabi turgan hamma narsani – tabiatni, jismoniy hodisalarni, odamlarning axloqiy qiyofalari va ularning xarakterini, shuningdek, xatti-harakatlarini o'rganadi. So'zlar bolalar ongini o'z ona yurtining tarixi, xalq an'analari va urf-odatlari, mantiqiy va falsafiy tushunchalar va xulosalar bilan uyg'unlashtiradi. Bu nuqtayi-nazar tilning tarixiy qiymati va uning yashirin pedagogik rolini baholash imkonini beradi. Tarbiyalanuvchilarning badiiy asarga bo'lgan muhabbatini oshirish jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

1. Bolaning ongida atrofdagi makonning siyratini yaratish va ustuvor hayotiy qadriyatlarni o'rnatish.
2. Turli janrdagi asarlar va kitoblarga bo'lgan ishtyoqni uyg'otish.
3. Badiiy matn janrining xususiyatlari tamoyillarini tushuntirish, bolalarda tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirish.
4. Bolalarning ijodiy faolligini rag'batlantirish, rolli o'yinlar va syujet dramatizatsiyasini o'tkazish, g'oliblarni taqdirlash. Ifodali o'qishga o'rgatish.
5. Adabiy nutqni takomillashtirish.
6. Og'zaki ijod bilan tanishish va unga qiziqish uyg'otish, matnlarni idrok etishni yaxshilash va estetik didni shakllantirish.

Bolalarda kitobga bo'lgan doimiy ishtyoqni shakllantirish va adabiy tajribadan foydalanishda shart-sharoitlarni ta'minlash maqsadida har bir yosh tarbiyalanuvchilar uchun ma'lum maqsad va vazifalar qo'yilgan:

1. Bolalar ongida atrofdagi dunyoning yagona siyratini yaratish (asosiy hayotiy qadriyatlarni o'rnatish uchun);
2. Adabiy nutqni shakllantirish va qurish (badiiy janrning boy dunyosi bilan tanishish orqali lingvistik ekspressivlikning asosiy elementlarini o'zlashtirish);
3. Adabiyot olami bilan tanishish (shakl va mazmun birligini badiiy idrok etishda taraqqiyotni ta'minlash, adabiyotga qiziqishni kuchaytirish va estetik didni shakllantirish).

Badiiy adabiyotning ertak va hikoya bo'limini shakllantirishda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

1. Bolalarning adabiyotni o'rganishga bo'lgan ehtiyojini inobatga olgan holda sharoit yaratish, adabiy ta'lim borasida mustaqil ishlashga o'rgatish.
2. Bolalarni san'at asarlariga jalb qilish usullari bo'yicha tarbiyachilarning o'z darajasini oshirish.
3. Bolalarning bo'sh vaqtini o'tkazishning yangi g'oyalari, shakllarini o'quv jarayoni hamda ta'limga oid me'yoriy hujjatlarda aks ettirilgan talablarga muvofiq integratsiya qilish va boshqalar.

XULOSA

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagagi bolalarning badiiy adabiyotlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari va tarbiyachilarning mazkur jarayonni ijodiy tashkil etish istaklarining kesishuvni natijasida quyidagi sifatlar shakllanadi: bolalarning ijtimoiy hayot hodisalariga hissiy munosabati shakllanganligi; asar mazmunini idrok etish va tushunish; boshqalarning quvonchi va qayg'usiga hamdard bo'lish istagini paydo bo'lishi; doimiy izlanish va harakatga intilish; asar mazmunini idrok etishga qaratilgan didaktik o'yin faoliyatida hayot tarzini o'zgartirish; hayotni estetik jihatdan bezatish mumkin bo'lgan ishlarda ishtirok etish istagi; birgalikda harakat qilish zarurati, boshqalarning muvaffaqiyatidan quvonish qobiliyati va boshqalar. Aynan shu jihatlar maktabgacha yoshdagagi bolalarga badiiy adabiyot orqali shaxsiy madaniyat, ma'naviyat, estetik tarbiya asoslari hamda dunyoqarash kabi eng muhim pedagogik va psixologik bilimlarni shakllanishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori <https://lex.uz/uz/docs/4327235>.
2. Xujamberdiyeva Sh.K. Maktabgaca ta'lim tashkilotlarda badiiy adabiyot bilan tanishtirishning mazmuni // NamDU Ilmiy Axborotnomasi. – Namangan, 2022. №7. –B. 538-543
3. Xujamberdiyeva Sh.K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning yosh bilan bog'liq xususiyatlari // NamDU Ilmiy Axborotnomasi, № 1. – Namangan, 2023. –B. 382-388.
4. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте: Психологический очерк. - 3-э изд., – М., Просвещение, 1991. – С. 93.
5. Запорожец А.В. Психология восприятия сказки ребенком-дошкольником. Д.в. 1948.№9. – С. 34-41.
6. Леонтьев А.Н. Ощущение, воспринятие и внимание детей младшего школьного возраста. Сб. ст. Очерки психологии детей. АПН, 1950
7. Теплов Б.М. Психологические вопросы художественного воспитания. Изв. АПН РСФСР - М.,1947.Вып. 2. – С.144.
8. Выготский Л.С. Избранные психологические исследования. APN. 1956 s.31.